

AGR



IQTISODIYOT

ilmiy-amaliy agroiqtisodiy jurnal



 **ISCAD**
The International Strategic Center
for Agri-Food Development

1
2023

Agroiqtisodiyot

Илмий-амалий агроиктисодий журнал

МУНДАРИЖА

4. **Т.ФАРМАНОВ.** Яйлов ерларини таназзуллиқдан күткәриш: имконият, натижага истиқбол
7. **А.МУХТОРОВ, С.РАВШАНОВ.** Сув русурсларидан фойдаланиш самарадорлигини оширишни қўл-лаб-қувватлаш (хориж тажрибаси)
10. **Н.АСКАРОВ, Д.ЯНТИБОЕВ.** Иссиқхоналарда сабзавотчилик тармоғини ривожлантиришнинг айрим масалалари
13. **A.ABDULLAYEV, J.QOBILOV.** Qishloq xo'jaligini klasterlashning xorijiy tajribasi
15. **A.ALIKULOV, X.ISHTUTDIYEV.** Agroklasterlarda moliyaviy natijalar auditining tashkiliy-uslubiy jihatlari
18. **Z.BAYMURATOVA, A.XASANOV.** Qishloq xo'jaligida agrosanoat klasterini tashkil etish metodikasi
21. **М.АБДУРАИМОВА.** Суғурта ташкилотларида ички назорат тизимини баҳолаш амалиёти
24. **А.АВЛОКУЛОВ.** Аудиторлик текширувларини режалаштириш йўналишлари
27. **А.АЗЛАРОВА, Э.МАХМУДОВА.** Совершенствование банковского финансового менеджмента (на примере коммерческих банков Узбекистана)
29. **З.ШОХЎЖАЕВА.** Сув хўжалиги тизимини бошқаришни токомиллаштириш йўллари
32. **З.СИДДИҚОВ, М.АЧИЛОВ.** Мева-сабзавотчилик тармоғини ривожланишининг ҳозирги дара-жаси
35. **Ш.ТОЖИБОЕВА, З.РАШИДОВ.** Таҳлилий амаллардан молиавий натижалар аудити сифатини оширишда фойдаланиш
39. **Д.МАТКАБУЛОВА.** Иқтисодиётни легаллаштириш бўйича илғор хорижий давлатлар тажрибаси
43. **D.ALIMOVA.** The essence and role of resource potential in the activities of service enterprises
46. **А.САТТОРОВ.** Замонавий аудиторлик фаолияти ривожланишининг тарихига назар
48. **Т.НУРЫМБЕТОВ.** Қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқариш самарадорлигини ошириш омиллари ва шартлари
50. **А.НОРОВ.** Давлат харидларидаги муаммолар ва уларни бартараф этиш йўллари
54. **С.НОРМУРОДОВ, Р.РАФИҚОВ.** Уй-жой фонди ва уй-жой коммунал хўжалиги соҳасини ривожлантиришнинг айрим жиҳатлари
56. **И.НИЁЗОВА.** Dual таълим - профессионал таълим самарадорлигини ошириш омили
59. **Б.МЕНГЛИКУЛОВ.** Чорвачилиқда харажатлар аудитини ташкил этиш ва услубиятини такомиллаштириш
63. **М.МИРҲАЙДАРОВА.** Банклар фаолияти самарадорлигини оширишнинг институционал асослари
66. **И.КЕНЖАЕВ.** Инвестицион фаолиятни молиавий бошқариш механизмининг илмий-назарий асослари
68. **Т.ДЖУМАНОВ.** Агрокластерлар самарадорлигини таъминлашнинг иқтисодий мазмуни ва унинг озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлашдаги аҳамияти
72. **Х.ТУРОБОВА, Ш.БОЛТАЕВА.** Қишлоқ хўжалиги кооперативларини ривожлантиришдаги муаммолар
76. **A.BURXANOV.** Qishloq xo'jaligida innovatsiyon faoliyatni rivojlantirish – potensiyal imkoniyatlar
79. **J.SAUXANOV, S.DANIYAROV.** Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligining hududiy oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashdagi o'rni
81. **Ж.БОЛТАЕВ.** Тўғридан-тўғри хусусий чет эл инвестициялари иштирокидаги юридик шахсларга солиқ солиш механизмини токомиллаштириш
84. **М.АБДУРАХМАНОВА.** Тижорат банклари капиталини самарали бошқариш механизmlари
87. **А.ЮСУПОВ.** Қўшма корхоналарда бухгалтерия ҳисобини халқаро стандартлар асосида ташкил этишининг айрим жиҳатлари
90. **Б.МЕНГЛИКУЛОВ, М.ЮСУПОВА.** Чорвачиликка ихтисослашган корхоналарда биологик активлар аудитини ташкил этишининг айрим жиҳатлари
93. **К.АРТИКОВ.** Олий таълим муассасаларида бюджетдан ташқари даромадларини ҳисобга олишнинг ўзига хос жиҳатлари
95. **F.RAKHMATULLAEVA.** The role of structural change management in the sustainable development of the regional economy
98. **U.SADULLAYEV.** Classification of factors affecting livestock intensification
101. **Н.АЛИЕВА.** Тармоқ корхоналарини ривожлантиришда инновацион менежмент усулларини кўллашнинг ўзига хос хусусиятлари
105. **И.МЕЛИЕВ.** Ўзбекистонда халқаро стандартлар асосида аудиторлик текширувини ташкил этиш масалалари

Agroiqtisodiyot

иљмий-амалий агроиктисодий журнал

МУНДАРИЖА

108. **Н.ОДИНАЕВА.** Олий таълим муассасалари фаолиятини бошқаришнинг замонавий мөдделлари ва уларнинг ўзига хос хусусиятлари
111. **N.OCHILOVA.** Analysis of factors affecting agriculture
114. **Б.ТАШБАЕВ.** Давлат қарз сиёсати ва унинг самарадорлиги таҳлили
117. **О.ХУШМУРАДОВ, Х.ХУЖАКУЛОВ, Ш.ТУРОБОВ.** Пахтачилик йўналишидаги ислоҳотларни такомиллаштириш масалалари
123. **Sh.QURBONOV.** The importance of providing citrus fruits
125. **М.ХОДЖАЕВА, М.АБДУЖАБОРОВА.** Корхоналар молиявий ҳолатини таҳлил этишнинг дастурий таъминотини яратиш аҳамияти
128. **N.OMANOVA.** Korporativ madaniyat samaradorligini oshirish vositasi sifatida gibrildish modelini amaliyotda qo'llash
131. **Ф.ХУДАЙБЕРДИЕВА, Н.МУСАЕВА.** Озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш моҳияти ҳамда устувор вазифалар
133. **О.ХОЛМУРОДОВ.** Консолидациялашган молиявий ҳисботни тузиш
137. **M.XAYITBOYEV.** Tovar-moddiy zaxiralar hisobining nazariy-uslubiy asoslarini takomillashtirish
140. **А.ТОШБОЕВ.** Ўзбекистонда озиқ-овқат маҳсулотларини етишириш ва хавфсизлик муаммолари
143. **U.ABDUG'ANIYEV.** Yashirin iqtisodiyot ko'lalimi aniqlash metodlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari
146. **T.JUMABOEV.** Xalqaro standartlar asosida moliyaviy hisobot auditini tashkil etish xususiyatlari
149. **М.ИНОЯТОВА.** Ер муносабатларида тенглик ва шаффофликни таъминлаш – давр талаби
151. **И.ОЧИЛОВ.** Хизмат кўрсатиш кластерларининг ташкилий-иктисодий ва молиявий самарадорлиги таҳлили
153. **U.TUXTAYEV.** Turizm industriyasini rivojlantirish va raqobatbardoshligini oshirishning ilmiy-nazariy asoslari
155. **Ж.ХАЙТБАЕВА.** Замонавий ускуна spad-502 кўрсаткичи асосида азот ўғитини қўллашнинг иқтисодий самарадорлиги
157. **К.ХАТАМОВ.** Асосий воситалар ҳисобини ҳалқаро ва миллий стандартларда акс эттириш масалалари
159. **А.ЭШЕВ.** Қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари рақобатбардошлигини ошириш ва баҳолашда стратегик моделни ишлаб чиқиши
162. **F.YUSUPOVA, S.ABDULLAEVA.** The main directions of development of dekhkan farms of dairy production
166. **Ж.ФАРМАНОВ.** Иқлим ўзгариши шароитида асаларичилик тармогини ривожлантиришнинг объектив зарурити
169. **К.КАЛЕНОВ, Н.ИБРАГИМОВА.** Қишлоқ хўжалиги корхоналарини суғурталашнинг метадалогик асослари
172. **H.AKBAROV.** Bog'dorchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishga ta'sir etuvchi omillar
174. **М.ИСМАИЛОВА.** Анализ базы данных финансовых результатов и методы его совершенствования на основе международных стандартов
177. **У.ЭШМУРАДОВ.** Агрокластерларда тайёр маҳсулотларни сотиш ва бошқа ҳисобдан чиқаришишлар ҳисобини такомиллаштириш
180. **С.ДАВЛАТОВ.** Қишлоқ хўжалиги соҳасига инвестицияларни жалб қилишининг истиқболлари
182. **И.ЗИЯДУЛЛАЕВ.** Мамлакатимизда узум етишириш ҳолати таҳлили ва экспорт қилиш истиқболлари
184. **А.ХАТАМОВ.** Мамлакат иқтисодиётida қишлоқ хўжалиги соҳасининг туттган ўрни ва унинг аҳамияти
186. **Ш.САИПНАЗАРОВ.** Қимматли қофозлар бозорида молиявий инжиниринг истиқболлари

Agroiqtisodiyot

илмий-амалий агроиқтисодий журнал

1 (27), 2023

Бош мұхаррир: Тулқин ФАРМАНОВ

ТАХРИР ҲАЙЪАТИ:

Алишер ШУКУРОВ
Сайдаспор ҒУЛОМОВ
Норқул ҲУШМАТОВ
Ражаббай ДУСМУРАТОВ
Фотима НАЗАРОВА
Ирода РУСТАМОВА
Акмал ҚОСИМОВ
Яшнаржон АЛИЕВ
Азиз КАРИМОВ
Абдуҳолиқ МУХТОРОВ
Муҳаммаджон ҚОСИМОВ
Исройлжон ХОЛМИРЗАЕВ
Назимжон АСКАРОВ
Аслиддин АБДУЛЛОЕВ
Кайрулла УБАЙДУЛЛАЕВ
Бахтиёр МЕНГЛИКУЛОВ

МУАССИС:

Озиқ-овқат ва қишлоқ хўжалиги соҳасида стратегик ривожланиш ва тадқиқотлар халқаро маркази (ISCAD)

Журнал Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлигига 2017 йил 10 марта 0909-рақам билан рўйхатга олинган.

Журнал 2017 йил июндан чиқа бошлаган.

Бир йилда 4 марта чоп этилади.

© Agroiqtisodiyot, 2023



QISHLOQ XO'JALIGINI KLASTERLASHNING XORIJYI TAJRIBASI

Asliddin ABDULLAYEV,

BuxDU, Iqtisodiyot kafedrasi professori, i.f.f.d.

Jasur QOBILOV,

BuxDU 2-kurs magistri

Annotatsiya. Maqolada qishloq xo'jaligini klasterlashning xorijiy tajribasi yoritilgan va uni O'zbekistonda qo'llash imkoniyatlari berilgan.

Аннотация. В статье освещается зарубежный опыт кластеризации сельского хозяйства и рассматриваются возможности его применения в Узбекистане.

Abstract. The article describes the foreign experience of agricultural clustering and examines the possibilities of its application in Uzbekistan.

Qishloq xo'jaligi sohasi rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, agrosanoat klasterlari faoliyati qonun (normativ-huquqiy hujjat) bilan to'g'ridan-to'g'ri tartibga solinmagan. Mazkur munosabatlar fuqarolik huquqiy munosabatlar asosida, jumladan sheriklik shartnomasi, qishloq xo'jaligi sub'ektlarining ko-operatsiyaga birlashishi orqali amalga oshiriladi.

Kanadada klaster deganda fermer xo'jaliklari sheriklik shartnomasi asosida yoki bir nechta fermerlardan iborat inkorporatsiyasiga yoxud yirik qishloq xo'jaligi korporatsiyalarga birlashgan holda faoliyati tushuniadi.

Shu bilan birga, jahon tajribasida klasterlarning shakllanish maqsadiga ko'ra oltita modeli mavjud:

- Italiya modeli - kichik firmalarning katta assotsiatsiyalar bilan raqobatbardoshligini oshirish uchun o'zaro birlashishi;

- Yaponiya modeli - ko'plab etkazib beruvchilarning integratsiyalashgan yirik etakchi firma atrofida shakllanadigan ishlab chiqarish zanjiri. Bu model texnologik jihatdan murakkab mahsulotlar ishlab chiqirishga qaratilgan;

- Finlyandiya modeli -yuqori texnologiyali innovatsiyalarni joriy etish, ishlab chiqarishni ta'lim va tadqiqot bilan integratsiya qilish, korxonalarni milliylashtirish maqsadida biznes va institutlar birlashuvi. Bu model tabiiy resurslari ko'p bo'limgan kichikroq mamlakatlar uchun mos keladi;

- Shimoliy Amerika modeli - korxonalar o'rtaisdagi aniq raqobat bilan tavsiflanib, ishlab chiqarish jarayonida yaqin aloqalarni o'rnatishni nazarda tutmaydi. Bu model klasterdagi etkazib beruvchilar o'rtaisdagi raqobat tufayli, shuningdek, ommaviy ishlab chiqarish tufayli bosh kompaniya yakuniy mahsulotning past narxiga erishish imkoniyatiga ega bo'ladi;

- Hind-Xitoy modeli - bu modelda davlat asosiy rol o'ynaydi. Asosiy e'tibor chet el investitsiyalariga qaratilgan bo'lib, ular zamonaviy texnologiyalarni olib kelinishini va davlatning jahon bozorlariga chiqishini ta'minlaydi;

- Sobiq Ittifoq modeli - bozor munosabatlari va raqobat minimallashtirilgan holda, ishlab chiqarish yirik firmalarda to'planadi. Bu model aholi zichligi past va kam rivojlangan mintaqalarning sanoatida qo'llilanadi.

Rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, klasterlar faoliyatini innovatsion qo'llab-quvvatlash maqsadida ularni innovatsiya maktablari, institutlar, markazlarvaboshqashukabi muassasalar bilan uzviy bog'liqligi ta'minlanadi. Bu esa, klasterlar faoliyatining samaradorligini oshirish, ishlab chiqarishda innovatsiyani joriy etish, shuningdek mamlakatning jahon bozoriga chiqishida raqobatbardoshligiga olib keladi. Xususan, Finlyandiyada innovatsiyani klasterlar bilan integratsiyasini ta'minlash maqsadida, bir qancha tadqiqot muassasalari tuzilgan.

Bugungi kunda qishloq xo'jaligining barqaror rivojlanishi aksariyat jihatdan uning raqobatbardoshligini oshirishga bog'liqdir. Ushbu yo'nalishda O'zbekistonda agroklasterlarni barpo etish muhim omil hisoblanadi. Bu borada Janubiy Koreya davlati tajribasi o'zining iqtisodiy, tashkiliy va institutsional jihatlari bilan O'zbekiston sharoitiga o'xshashligi bu davlat tajribasini o'rganish va O'zbekiston sharoitida qo'llash istiqbollarini o'rganishni taqozo etadi.

Koreyada agroklasterlarni rivojlantirish zaruriyati asosan quyidagi omillar bilan belgilanganligini ta'kidlagan holda, O'zbekiston sharoitida ham asosiy omillar tarzida inobatga olish mumkin. Jumladan:

- davlatning qishloq xo'jaligiga amaliy yordami va qo'llab-quvvatlashi hamda islohotlarni amalga oshirishdagi etakchiligi;

- tarixiy va milliy an'analardan foydalanish, ularni saqlab qolish, zamonaviylashtirish asosida yangi yo'nalishlarni shakllantirish;

- hududiy ixtisoslashuv va qishloq xo'jaligi mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirish va rivojlanishining barqarorligini ta'minlash;

- davlat-universitetlar-ilmiy tadqiqotlar-fermerlik-qayta ishslash biznesning birgalikda

Kalit so'zlar: modellar, davlatlar, raqobatbardoshlik, qishloq xo'jaligi, agrosanoat klasterlari, innovatsiya.

1-jadval. Klasterlashtirishning xorijiy tajribasi va ularni hududiy agrosanoat majmuasida moslashtirish istiqbollari

Mamla-kat	Klasterlash tajribasining mazmuni	O'zbekistonda qo'llash yo'llari
AQSH	Jahon narxlari pasayganda eksport mahsuloti ishlab chiqaruvchi fermerlarning daromadlarini qo'llab-quvvatlash	Jahon narxlari pasayganda eksport mahsuloti ishlab chiqaruvchi fermerlarning daromadlarini qo'llab-quvvatlash
Qozog'iston	EIZda paxta-to'qimachilik klasterini tashkil etishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash "Ontustik"	Davlat-xususiy sheriklik mexanizmidan foydalinish
Ispaniya, Gretsya	An'anaviy sanoatning yuqori darajadagi rivojlanishi bilan birinchi avlodning klaster siyosati	Agrosanoat majmuasida klasterlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat organanini aniqlash va yaratish chora-tadbirlari tizimi
EI	Mumkin bo'lgan tijorat tavakkalchiligini hisobga oлган holda innovatsiyalarni joriy etish uchun mablag'larni yaratish	Agrosanoat majmuasida innovatsiyalarni tijoratlashtirish uchun venchur kapital fondini shakllantirish
	Tadqiqot va ishlalmalar uchun maqsadli grantlar	Innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash jamg'armsasining salohiyatini mustahkamlash
	Kreditlar berish, shu jumladan foizsiz (Shvetsiya); tovar ishlab chiqaruvchilarning hamkorligi tadqiqot va innovatsion xarajatlarga soliqlarni kamaytirish	Iste'mol kooperativlarini shakllantirishni rag'batlantrish Tadbirkorlik muhitini takomillashtirish bo'yicha Muvofiglashtiruvchi Kengash ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstrukturlik xarajatlari uchun ustuvor klasterlar bo'yicha soliq tashabbuslarini qo'llab-quvvatlaydi.
Xitoy	Fermerlar va eksportchilar uchun imtiyozi soliqqa tortish	Dehqon xo'jaliklarini ijtimoiy fondga ajratmalar to'lashdan ozod qilish
	Tashqi savdoni tartibga solish	Qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari - oziq-ovqat mahsulotlarini eksport qiluvchilar uchun QQSni qaytarish
Yaponiya	Kichik korxonalar majmui korxona atrofida to'plangan - yadro, aslida monopolist hisoblanadi.	Ustuvor yo'nalishlar - eksportni kuchaytirish va raqobatbardoshlikni oshirishda import o'rnni boshishga e'tibor qaratish
	Bitta qishloq - bitta mahsulot tamoyilini qo'llash	"Bir qishloq - bir mahsulot" yondashuvini joriy etish qishloq xo'jaligi mahsulotlarini an'anaviy hamda yangi ichki va tashqi bozorlarga keng ko'lamda etkazib berish
O'zbekiston	Paxta klasterlarining barqor rivojlanishini ta'minlash va rivojlanishini rag'batlantrish markaziy tashkiloti	Milliy siyosatni ishlab chiqish

faoliyat yuritishining o'zaro mutanosibligini ta'minlash mexanizmi;

- olimlar mavqeい va ilmiy tadqiqotlar natijalarining yuqoriligi hamda ularni qo'llab-quvvatlashda davlat siyosati darajasidagi mavqeining yuqoriligi;

- yuqori innovatsiyaga asoslangan ishlab chiqarishni tashkil etishga ustuvorlik berilishi va uni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning samarali mexanizmining shakllanganligi;

- marketing tizimining rivojlanganligi;

-inson kapitaliga munosabatning yuqoriligi va uni qishloqda rivojlantirishga ustuvorlik berilishi.

Iqtisodiy rivojlanishning klasterli yondashuvi ayniqsa AQSh va Yevropa mamlakatlarda keng qo'llaniladi. Shimoliy Yevropa mamlakatlari iqtisodiyoti klasterlar bilan qamrab olingen bo'lib, iqtisodiyotda yog'ochsozlik, biotexnologiyalar, farmasevtika va kommunikatsion klasterlar etakchilik qiladi. Germaniya va Buyuk Britaniyada biotexnologik klasterlar, Fransiyada oziq-ovqat va kosmetika klasterlari keng tarqalgan bo'lsa, Italiyada sanoatda band bo'lgan aholining yarmi sanoat klasterlari hissasiga to'g'ri keladi.

Rivojlangan mamlakatlarda klasterlashning tahlili shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda ushbu davlatlar iqtisodiyotlarining yuqori raqobatbardoshligi, raqobatbardoshlikni oshiradigan va milliy iqtisodiyotni boshqarishni optimallashtiradigan klasterlarning pozitsiyalari bilan bevosita bog'liqdir.

Xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, integratsiya jarayonlari sinergiya effekti hisobiga korxonalar faoliyatini kengaytirish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Shunday qilib, agrosanoat majmuida klasterlashtirish raqobatbardoshlik va investitsion jozibadorlikni ta'minlovchi model bo'lib, qishloqlarda hayotning yuqori darajasi va sifatini ta'minlab, tarqoq dehqon xo'jaliklarini yagona takror ishlab chiqarish jarayoniga jalb etadi. Davlat tomonidan maqsadli innovatsion klaster siyosati olib borilgan taqdirda agrosanoat majmuasini yanada jadal rivojlantirishning asosiy omili sifatida innovatsiyalardan to'liq foydalanish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Eva Galvez-Nogales. Agro-based clusters in developing countries. – FAO, Rome, 2010
2. Ibraeva O.V. Regionalnye innovatsionnye klasterы kak instrument aktivizatsii i povышeniya effektivnosti innovatsionnoy deyatelnosti // Vestnik Akademii 2013. №1. S. 44– 46. <https://cyberleninka.ru/article/n/mirovoy-optyt-klasternoy>
3. Ruzinazarov Sh.N. Qishloq xo'jalik tadbirkorlik faoliyati sohasidagi qonun hujjatlarini tizimlashtirish va takomillashtirish muammolari. Huquqiy tadkiqotlar jurnali –№1, 2018. – 59–78 b.
4. Porter M. Konkurentnaya strategiya: metodika analiza otrasley i konkurentov / M. Porter; per. s angl. I.Minervin. – M.: Alpina Biznes Buks, 2005. – 454 s.

Ҳурматли журналхонлар!

“**AGROIQTISODIYOT**” илмий-амалий аграр иқтисодий журнали 2017 йил июнь ойидан бошлаб нашр этила бошланди. Унда иқтисодиёт мавзусидаги мақолалар билан қатнашиш мумкин.

Журналда чоп этиладиган мақолалар **ўзбек, рус ва инглиз** тилларида қабул қилинади. Уларнинг ҳар бири **8 бет**дан кам бўлмаслиги, А4 ўлчамдаги оқ қофозда, **1,5 интервал билан 14 шрифтда Times New Roman шрифтида тайёрланган, ўзбек, рус, инглиз тилларида қисқача аннотация ва калит сўзлар илова қилинган, муаллифнинг фамилияси, исми ва шарифи, иш жойи, лавозими, илмий даражаси ва узвони, манзили, телефон рақами ва электрон почтаси** кўрсатилган ҳолда тақдим этилиши керак.

Мақолани электрон почта ooqxsrtxm@agro.uz орқали ҳам юборишингиз, қўшимча маълумотлар учун эса қўйидаги телефонларга мурожаат этишингиз мумкин: (371) 2605230, 2605261.

Ушбу журналда эълон қилинган мақолалар билан **Озиқ-овқат ва қишлоқ хўжалиги соҳасида стратегик ривожланиш ва тадқиқотлар халқаро марказининг веб сайти, ижтимоий тармоқлардаги саҳифалари ҳамда www.ooqxsrtxm.uz** орқали танишишингиз мумкин.

Манзил: **100140, Тошкент вилояти, Қибрай тумани, Университет кўчаси, 2 уй.**
Озиқ-овқат ва қишлоқ хўжалиги соҳасида стратегик ривожланиш ва тадқиқотлар халқаро маркази (ISCAD)

Таҳририят:

Мусаҳҳих: **Янгибоев Д.**

Дизайнер-саҳифаловчи – **Садуллаев У.Н.**

Таҳририят манзили:

100140, Тошкент вилояти, Қибрай тумани
Университет кўчаси, 2 уй.

Тел.: (+0371) 2605230

Факс: (+0371) 2605230

E-mail: ooqxsrtxm@agro.uz

Бичими 60x84 1\8 (4 б.т.). Адади 150.

Чоп этишга 31.01.2023 йилда руҳсат
этилди. 8/15 сонли бўртма.

Уч ойда бир марта чиқади.

Баҳоси келишилган нарҳда.

“**AGROIQTISODIYOT**” журналидан кўчириб босиш фақат таҳририятнинг ёзма розилиги билан амалга оширилади.

Таҳририят фикри муаллифларнинг
фикр ва қарашларига мос келмаслиги
мумкин.

Мақолалардаги факт ва рақамларнинг
ҳаққонийлигига муаллиф шахсан масъул.

Реклама мазмунига реклама берувчи
жавобгар.